
Rasmiy munosabat

“Olimjon Haydarov” o‘zining feysbukdagi sahifasida Rishtondagi kulolchilik markazidagi do‘konlar auktsionga qo‘yilmoqda, deb iddao etilgan videomaterial e‘lon qilindi. Ushbu materialda keltirilgan holatlar umuman tasdig‘ini topmagani bildirilib, quyidagilar ma‘lum qilinadi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 mart kungi KULOLCHILIKNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH ChORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA qarorining 11-bandiga ko‘ra, Rishton tumanidagi «Xalqaro kulolchilik markazi»dagi kulollarga quyidagi imtiyozlar berilgan. «O‘zsanoatqurilishbank» ATBning Farg‘ona viloyati Rishton tumanida tashkil etilgan «Xalqaro kulolchilik markazi» hududida kulollar uchun qurilgan xonadonlarni ular tomonidan sotib olish maqsadida:

«O‘zsanoatqurilishbank» ATB tomonidan xonadonlar qiymatining 50 foizi miqdorida kulollarga boshlang‘ich badalsiz, faqat mazkur xonadonlar garovi ostida 20 yil muddatga, 3 yil imtiyozli davr bilan, Markaziy bankning asosiy stavkasida ipoteka kreditlarini ajratish;

xonadonlar qiymatining 50 foiz miqdorini «O‘zsanoatqurilishbank» ATB tomonidan qoplab berish haqidagi takliflari ma‘qullansin.

Ushbu qarorga ko‘ra, xonadonlarning umumiy narxining 50 foizi ya‘ni 10 mlrd sum miqdoridagi summa bank tomonidan to‘lab berilgan. Kulollar uchun 3 yil imtiyozli davr bilan ipoteka kreditlari ajratilgan. Bundan tashqari, O‘zsanoatqurilishbank tomonidan kuloldan mahsulot xarid qilish uchun 200 million sumdan ortiq miqdoridagi summa ajratilib kulolchilik mahsulotlar sotib olingan. Yaqinda qurilish bo‘yicha qilingan murojaat ham quruvchi tashkilot tomonidan bartaraf etilishi kelishib olingan edi.

Shuni aytish joizki, xalqaro kulolchilik markazi aynan an‘anaviy kulolchilik bilan shug‘ullanadigan ustalar tashabbusi bilan barpo etilgan.

2022-08-16 07:19:31